

YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

2025-yil (Dastlabki ma'lumot)


- I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
- V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yil uchun Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **35 794,4** mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yil bilan taqqoslaganda **9,8 %** ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi **1,9 %** ga yetdi.

YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



2025- yilda YAHM deflyatori indeksi 2024- yildagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 121,0 % va Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,4 % qayd etildi.

2025- yil uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilga nisbatan % da)




II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2024-yil	2025-yil	
YAHM - jami	28 655,5	35 794,4	109,8
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 107,4	34 914,3	109,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 866,5	10 661,7	106,9
sanoat	7 716,3	10 152,1	108,7
qurilish	1 971,9	2 825,5	137,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 997,1	3 603,6	111,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	977,7	1 264,8	115,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 577,9	6 406,6	103,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	548,1	880,1	113,6

2025- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **106,9 %**, sanoatda – **108,7 %**, qurilishda – **137,9 %**, xizmatlar sohasida – **107,4 %** nitashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **111,8 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqa **115,5 %**, boshqa xizmat tarmoqlarida **103,7 %** dan iborat bo'ldi.

YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(%,da)




2025- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **97,5 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **2,5 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **30,5 %** ni, sanoat tarmog'i **29,1 %** ni, qurilish **8,1 %** ni va xizmatlar sohasi **32,3 %** ni tashkil qildi.

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot


Quyida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 35 137,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,9 % ga yuqoridir.



IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi

2025-yil uchun kichik tadbirkorlik 24 269,5 mlrd so'mni tashkil etdi (2024- yilda – 19 253,0 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 69,5 % ni (2024- yilda – 68,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.





V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soni bo'yicha demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)